Hamkorlik to’g’risidagi kelishuv imzolandi

Joriy yil 25-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz va “O’zarxiv” agentligi tomonidan ikki tashkilot o’rtasida o’zaro hamkorlik qilish bo’yicha kelishuv imzolandi.

Mazkur kelishuv O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O’zbekistonning eng yangi tarixi bo’yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” PQ-3105-son qarori, 2020-yil 9-sentyabrdagi “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4820-son qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi “O’zarxiv” agentligi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 72-son qarorida qo’yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda tuzildi.